



## HUDUDLARDA SOLIQ SALOHIYATINI SAMARALI BOSHQARISH

**G'oyimov Xusayin Bahodir o'g'li**

Bank Moliya Akademiyasi tinglovchisi

Qashqadaryo viloyat ko'kdala tuman soliq inspeksiyasi yuridik  
shaxslarga xizmat ko'rsatish shòbasi soliq katta inspektori

**Kuziyeva.N.R.**

Ilmiy rahbar:

Toshkent Moliya Instituti "Soliqlar va Soliqqa tortish" kafedra mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673197>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq tushumlari, tahlila-tahlil, soliq siyosati, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq.

Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sib borayotgan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb etish istagida bo'lgan mamlakat sifatida soliq tizimini isloh qilish muhimligini e'tirof etdi. Ushbu islohotlar nafaqat daromadlarni yig'ishni kuchaytirishga, balki biznesning o'sishi, innovatsiyalar va barqaror rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Jo'raev (2015) fikricha, g'arb iqtisodchilari soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi - deb ta'kidlashadi.

Kene, ingliz iqtisodchisi Keyns (2013) va boshqalarning ilmiy qarashlarida muhim o'rin tutib kelgan. Ular davlat iqtisodiyotni tartiblashda soliq siyosatini yuritishning turli xil uslublari va yondoshuvlari haqida ko'plab bahslar yuritgan, soliq siyosatining bosh maqsadi nimadan iborat bo'lishi lozimligi ko'rsatib





berishda, ko'proq, soliqlarni undirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Bayborodina (2010) "soliq islohotlari – soliqlik tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliqlik munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliqlik organlari tomonidan ayrim soliqlik hisobotlarini shakllantirish tartibi joriy etilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2023 yil 18 oktabrdagi 548-son qarorida qo'shilgan qiymat soliqlik va aylanmadan olinadigan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliqlik hisobotlari soliqlik organlari tomonidan shakllantirish tizimi joriy etildi. Bunda soliqlik to'lovchi hisobotni to'g'riligini tasdiqlashi yoki o'zi hisobotni taqdim etishi mumkin. Muammo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 avgust kuni Toshkent viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha berilgan 24-sonli topshiriqlik bayonida tadbirkorlik sub'ektlarining yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha hisobot topshirmasliklari va soliqlarni soliqlik organi tomonidan hisoblanishini bo'yicha topshiriqlik berilgan. Bugungi kunda soliqlik hisobotlarining avtomat shakllantirish yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha 100 foizni, QQS bo'yicha 90 foizni, AOS bo'yicha 83 foizni, suv soliqlik 82 foizni tashkil etmoqda. Soliqlik to'lovchilarning hisobotlarni tayyorlash bilan bog'liqlik vaqti va mablag'lari tejaladi. Xususan, Rossiyada transport, mol-mulk va yer soliqlarini soliqlik organlari hisoblab chiqadi va soliqlik to'lovchilarni bo' to'g'risida xabardor qiladi. Taklifimiz esa yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliqlik summalarini soliqlik organlari tomonidan hisoblab, soliqlik to'lovchilarga taqdim etish tizimini joriy etish. Bunda, soliqlik to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan yer va mol-mulk soliqlik hisoboti taqdim etilmaydi.

Amaldagi soliqlik organlarida soliqlik qarzi mavjud soliqlik to'lovchilarni respublikadan tashqariga chiqishini vakolati mavjud emas. Mazkur vakolat bugungi kunda Majburiy ijro byurosida mavjud. Muammo 2023 yil 1 yanvar holatiga, 3,2 mln nafar jismoniy shaxs soliqlik qarzi 2,5 trln so'mni tashkil etib, 2022 yilning shu davriga nisbatan 290 mlrd so'mga yoki 12,6 foizga ko'pdir. Shu bilan birga, 2,9 ming nafar jismoniy shaxs 192,4 mlrd so'm soliqlik qarzi bo'lgan korxonalarining ta'sischi hisoblanadi. Mazkur tartibning kiritilishi soliqlik qarzidorligining kamayishiga va soliqlik to'lovchining to'lov intizomiga rioya etishiga olib keladi. Avstraliya, Isroil, Italiya, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Niderlandiyada amal qiladi. Taklifimiz esa soliqlik oranlari tomonidan 10 mln





soʻmdan ortiq soliq qarzi mavjud jismoniy shaxslarni, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarni respublikadan tashqariga chiqishini cheklash tartibini joriy etish zarurdir.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, soliq organlari yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va soliq toʻlashdan boʻyin tovlashga qarshi kurashda muhim rol oʻynaydi. Ular oʻzlarining saʼy- harakatlari, hamkorliklari, taʼlim olishlari va texnologiyalardan foydalanishlari orqali soliq tizimining adolatliligi va yaxlitligiga hissa qoʻshadilar, barcha jismoniy shaxslar va korxonalar soliq majburiyatlarini bajarishlarini va iqtisodiyotga oʻzlarining adolatli hissalarini qoʻshishlarini taʼminlaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish choralarini koʻrish yuzasidan quydagi takliflarni berishimiz mumkin.

Xalqaro moliya institutlari hamkorligida “Soliq xavflarini boshqarish” (CRM) tizimini joriy qilish. Bunda dastlab, Qurilish va keyinchalik savdo, qishloq xoʻjaligi, xizmat koʻrsatish va ishlab chiqarish sohalarini qamrab olish. Teng raqobat muhitini yaratish va soliq toʻlashdan boʻyin tovlash holatlarining oldini olish chora-tadbirlarini davom ettirish, shu jumladan soliq toʻlamaslik xavfi yuqori boʻlgan soliq toʻlovchilari uchun qoʻshimcha cheklovlar oʻrnatish tizimini joriy qilish kerak boʻladi.

### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Joʻraev A., Safarov G. (2005) Soliq nazariyasi. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Iqtisod-moliya”,. 48-bet.
2. Karp M.V. (2011) Soliq menejmenti: Universitetlar uchun darslik. – M.: Birlik-dana, – 39 b.
3. Abdillajonovna, S. S. (2023). TILSHUNOSLIKDA MEDIA MATN TALQINI VA TAVSIFI. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(9), 12-22.
4. qizi Lutfiddinova, H. B., Abdurahmanov, M. G., & Sharipova, S. A. (2023). INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING NEWSPWPER CLICHES AND PHRASES. GOLDEN BRAIN, 1(6), 118-121.
5. Abdillajanovna, S. S., & Rustamovna, A. J. (2022). Lexical semantic study of legal terms in English and Uzbek languages. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 15, 63-65.
6. Mahmudova, N., & Sharipova, S. (2022). METONYMY IN ENGLISH. Science and innovation, 1(B8), 30-33.
7. Quesnay (2010) Tanlangan iqtisodiy asarlar.-M.Sotsekgs.





8. Usmanova, D., & Shodieva, G. N. K. (2022). Issues of classification of word categories in the Uzbek language. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1276-1280.
9. Azatbaevna, S. S. (2023). THE ATTEMPTS OF CURRENT KARAKALPAK POETRY TO ACHIEVE THE LEVEL OF WORLD POETRY.
10. Raqiboyevna, G. M. (2023). Hereditary Pigmentary Degeneration. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(10), 146-149.
11. Kaipbergenova, S. (2024). APPROACHES IN COMPUTER LINGUADIDACTICS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES USING NETWORK TECHNOLOGIES. *Models and methods in modern science*, 3(1), 255-257.
12. Barzиеv, O. (2021). LYRICAL INTERPRETATION OF "I" IN THE POETRY OF ANBAR OTIN, DILSHODI BARNO AND SAMAR BONU. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 2(06), 61-66.
13. Barziyev, O. H.(2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. *НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ*, 3(3), 108-114.
14. Barziyev, O. H.(2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. *Scientific journal of Fergana State University*, 3(3), 108-114.
15. Barziyev, O. H. (2018). ANALYSES OF UZBEK POETRY AND TURKISH LITERATURE, IT'S FREEDOM AND NATIONALITY AT THE SECOND PART OF NINETEENTH CENTURY AND AT THE BEGINNING OF THE XXTH CENTURY. *Theoretical & Applied Science*, (7), 48-51.
16. Mayburov I.A. (2017) *Soliqlar va soliqqa tortish: mutaxassisliklar bo'yicha tahsil olayotgan universitet talabalari uchun darslik; tomonidan tahrirlangan I.A.Mayburova. –M.: birlik-dana, -655s.*
17. Normurzayev U. (2021). O'zbekistonda investitsiya jozibadorligini yanada oshirish maqsadida ayrim tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari va preferensiyalarining samaradorligini tahlil qilish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (6), 82–86. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol\\_iss6/a285](https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285)

